

**TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK METODLARNING ROLI**

Sheraliyeva Sitora Hayot qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti (TDIU)

Iqtisodiyot fakulteti I-81/25 guruh, 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Mamarajabov Shavkat Ergashevich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti (TDIU)

professor, pedagogika fanlari nomzodi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik metodlardan foydalanishning ahamiyati yoritib beriladi va samaradorligi tahlil qilinadi. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali dars jarayonini tashkil etish hamda talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogik metodlar, innovatsion ta'lim, ta'lim samaradorligi, mustaqil fikrlash, dars jarayoni, interfaol metodlar.

Abstract: This article highlights the importance of using innovative pedagogical methods in the modern education system and analyzes their effectiveness. It also provides recommendations for organizing the learning process through modern pedagogical approaches and for developing students' independent thinking.

Keywords: pedagogical methods, innovative education, educational effectiveness, independent thinking, learning process, interactive methods.

Аннотация: В данной статье освещается значение использования инновационных педагогических методов в современной системе образования и анализируется их эффективность. Также представлены рекомендации по организации учебного процесса на основе современных педагогических

подходов и развитию самостоятельного мышления студентов.

Ключевые слова: педагогические методы, инновационное образование, эффективность образования, самостоятельное мышление, учебный процесс, интерактивные методы.

KIRISH

Bugungi kunda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar o'qituvchilardan zamonaviy pedagogik yondashuvni talab qilmoqda. Ta'lim samaradorligini oshirish, talabalarning bilimini mustahkamlash va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun o'qituvchining pedagogik mahorati hamda dars jarayonida qo'llagan metodlari katta rol o'ynaydi. Shu sababli ta'lim tizimida interfaol pedagogik metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega.

Hozirda ta'lim amaliyotida ko'plab interfaol metodlardan foydalanilmoqda. Albatta bunda fanning va mavzuning xususiyati, ta'lim yo'nalishi, guruh talabalarining salohiyati, ularlarning yosh xususiyati va qiziqishlarini e'tiborga olish lozim bo'ladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim samaradorligini oshirish va dars jarayonini zamonaviylashtirish masalalari o'zbek olimlari tomonidan keng o'rganib chiqilgan hamda turli tadqiq qilingan. Xususan, zamonaviy pedagogik metodlar va ularni o'quvchilarning bilim olish, mustaqil fikrlash hamda jamoada ishlash samaradorligiga ta'siri respublikamiz olimlari B. Abdullayeva, R. Djuraev, M. Xakimova, Sh. Mamarajabov kabi olimlar tomonidan o'rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi olimlari E. Zeer, I. Zimney, A. Pavlova va boshqa ko'plab olimlar ta'limda kompetent yondashuv, chiziqsiz ta'limni amalga oshirish va o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish bo'yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqqan. Ular shu bilan birga, differensiallashtirish va individual yondashuvning samaradorligini tadqiq qilgan.

Xorijiy olimlardan John Dewey, Lev Vygotsky, Jean Piaget, Benjamin

Bloom, L. Harvey, T. Hoffmann kabi tadqiqotchilar zamonaviy pedagogik metodlar, o'quvchilarning faolligini kuchaytirish hamda mustaqil pedagogik faoliyatga tayyorlash yo'llarini ilmiy asosini tashkil etadi.

ZAMONAVIY PEDAGOGIK METODLARNING QO'LLANILISHI

Kuzatuvlar orqali shuni aytish mumkinki, hozirgi kunda ta'lim tizimida turli interfaol metodlardan foydalanish keng tarqalmoqda. Bu metodlar o'quvchilarning dars jarayonida faol ishtirok etishiga zamin yaratadi va ularning mustaqil fikrlash hamda kreativligini rivojlantiradi.

- Aqliy hujum (Brainstorming) metodi – bu o'quvchilarning muayyan masala yoki muammo yuzasidan erkin va tez fikr yuritishi. Bunda muammoni “yaxshi yoki yomon” deb baholamasdan fikrlar bildirishadi va shunda kutilmagan turli yechimlar paydo bo'ladi. Natijada, o'quvchilarning fantaziyasi va ijodiy qobiliyati rivojlanadi, jamoaviy fikrlash va fikr almashish ko'nikmalari shakllanadi.

- Klaster metodi – bu metodda asosiy tushuncha markazga yoziladi va unga bog'liq fikrlar, misollar hamda tushunchalar atrofga joylashtiriladi. Bu o'quvchilarga mavzu bo'yicha bilimlarni tizimli tashkil qilish va izchillik imkonini beradi. Natijada, bilimlar o'rtasidagi bog'liqlikni vizual ko'rish mumkin hamda asosiy va qo'shimcha tushunchalarni farqlash oson bo'ladi.

- Case-Study (vaziyatli tahlil) metodi – bu metod real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan bo'lib, o'quvchilar asosiy muammoni aniqlaydi va turli yechimlarni ko'rib chiqib, eng maqul qarorni tanlaydi. Natijada, tahlil va mantiqiy fikrlash rivojlanadi hamda qaror qabul qilish ko'nikmasi shakllanadi.

- Loyiha metodi – bu metod mustaqil tadqiqot olib borish hisoblanib, bir mavzu bo'yicha ma'lumot to'planadi, tahlil qilinadi va natijalar taqdim etiladi. Natijada, mustaqil izlanish va fikrini ifodalab berish ko'nikmasi rivojlanadi.

TAHLIL va NATIJALAR

Ta'lim jarayonida interfaol pedagogik metodlardan foydalanish o'qitish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Tadqiqot davomida zamonaviy pedagogik metodlarni darsda qo'llashning ahamiyati o'rganildi va metodlardan foydalangan holda talabalarning dars davomidagi faolligi oshgani kuzatildi.

Masalan, “Aqliy hujum” va “Klaster” metodlari talabalarga mavzuni izchillikda o’rganishga va yangi ma’lumotlarni tez qabul qilib, fikr bildirishga xizmat qildi. Shuningdek, bunday metodlar mustaqil fikrlash ko’nikmasini rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etdi. O’quv mashg’ulotlari jarayonida yuqorida aytib o’tilgan metodlardan foydalangan guruhlar mavzu yuzasidan ko’proq qiziqish va natija ko’rsatdi. Natijalar shuni ko’rsatadiki, zamonaviy pedagogik metodlar orqali talabalarning bilimlarini chuqurlashtirish, mustahkamlash va o’rganish samaradorligini oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Xususan, biz tahsil olayotgan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida ham professor-o’qituvchilar o’quv mashg’ulotlarida interfaol ta’lim metodlaridan foydalangan holda fan mazmunini talabalarga yetkazishda samarali foydalanmoqdalar. Bu esa bo’lajak mutaxassislarning kasbiy bilim, ko’nikma va malakalarini shakllantirishda, pirovardida ularning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish imkoniyatini bermogda.

XULOSA va TAKLIFLAR

Xulosa sifatida aytish mumkinki, ta’lim samaradorligini oshirishda zamonaviy pedagogik metodlardan foydalanish katta ahamiyatga ega, chunki talabalarning bilim darajasi, qiziqishlari va o’rganish usullari turlicha bo’ladi.

Darslarda interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish har bir talabaning o’ziga mos tarzda bilim olishiga yordam beradi. Shu orqali dars jarayoni yanada samarali, qiziqarli va albatta o’quvchilar uchun foydali bo’ladi.

Shuningdek, o’qituvchilarga tavsiya sifatida shuni aytishimiz mumkinki, dars mobaynida turli metodlardan kengroq foydalanilsa, talabalarni mustaqil fikrlash va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga e’tibor qaratilsa ta’lim sifati va talabalarning o’zlashtirishlari yanada oshgan bo’lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xakimova M., Mamarajabov Sh. Maxsus fanlarni o'qitish metodikasi. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2021.
2. Mamarajabov Sh. Professional ta'lim metodikasi. – Toshkent, TDIU, 2025.
3. Zeer E., Zimney I., Pavlova A. Competence-based Approach in Education. – Moscow, 2017.
4. Dewey J. Democracy and Education. – New York: Macmillan, 1916.
5. Vygotsky L. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 1962.
6. Piaget J. The Psychology of the Child. – New York: Basic Books, 1969.
7. Bloom B. Taxonomy of Educational Objectives. – New York: Longman, 1956.
8. Harvey L., Hoffmann T. Innovative Teaching Methods. – London: Routledge, 2015.